

NUTQNING HOSIL BO'LISHINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Shodiyeva Gulsanam

O'zMU 2-bosqich tayanch doktoranti.

[*gulsanam728@gmail.com*](mailto:gulsanam728@gmail.com)

Lingvistikaning turli bo'limlarida nutqning o'zi har xil tariflar bor, fonetik jihatdan qaralganda nutq bu ketma- ket kelgan tovushlar yig'indisi, uslubiyatda ma'lum bir modal munosabatlarni ifodalash uchun asos bo'ladi. Nutq murakkab psixologik jarayon bo'lib, u ko'plab omillarni, jumladan, so'zlovchi, tinglovchi, kontekst va vaziyatni o'z ichiga oladi.

Inson muloqoti ko'pincha nutq orqali sodir bo'ladi. Nutq orqali his-tuyg'ularimizni, xohish-istaklarimizni bayon qilamiz. Inson tug'ilganidanoq nutq paydo bo'ladi, go'dakligadanoq, harflarni talaffuz qilishdan boshlab bo'g'inlar, so'zlar, so'zlar birikmasi, gaplarni so'zlash orqali davom ettiradi. Shuning uchun nutqni tushunish, uni hosil qilinishini (speech production) tushunish, nutqni tushunish (speech comprehension) tushunish insonning til qobiliyatlarini anglashga asos bo'ladi.

Hozirgi nazariyalarga ko'ra nutq hosil qilishning boshlanish nuqtasi bu so'zlovchining o'zi gapirmoqchi bo'lgan fikrga ega bo'lgan vaqtidir. So'zlovchi qanday qilib fikrlarini so'zlarga ya'ni nutqqa aylantirishlariga e'tibor berishadi. Qandaydur bo'lsa ham fikrlar har doim bor bo'ladi deb hisoblashadi. Kognitiv psixologiyada bo'lsa insonlar g'oyalarni qanday o'ylab topishlariga, qanday tanlashlariga va qanday ifodalashlariga e'tibor beriladi ¹. rejalashtirish nutqning asosiy jarayoni bo'lsada, u juda oddiy ko'rinadi. Nutqni hosil qilish va rejalashtirish tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, nutqni hosil qilish, fikrlash jarayayonlari jismoniy harakat qilishdan ancha murakkabroq.

Nutqning hosil bo'lishi eng murakkab kognitiv operatsiyalardan biri

¹ Goldstein and Brooks Understanding and Managing Children's Classroom Behavior: Creating Sustainable, Resilient Classrooms (Vol. 207). New York: John Wiley & Sons. 2007

hisoblanadi. Ingliz tilida normal nutq tezligida gapirganda bir daqiqada 150 ta soʻzni tashkil etadi. Buni shuni anglatadiki, soʻzlovchi bir soniyada taxminan ikkita yoki uchta soʻzdan foydalanadi va 30000 ta kundalik hayotda uchraydigan soʻzlardan oʻz nutqida qoʻllaydi.² Nutqni ijro etish jismoniy harakatni talab qiladi. Bunda bizning 100dan ortiq muskullarimiz ishlaydi. Nutq biz baoaradigan jismoniy jarayonlardan ancha murakkabroq. Nutqni ijro etishda 100 dan ortiq mushaklar harakat qiladi.³ Nutqning hosil boʻlishi uchta mental (aqliy) jarayonlarni oʻz ichiga oladi.⁴ Birinchisi, siz aytmoqchi boʻlgan gapingizni oʻylashingiz kerak. Buni amalga oshiradigan jarayonlar konseptualizatsiya deyiladi. Aytmoqchi boʻlgan gapingizni maʼlum bir til vositalaridan maqbulini topib foydalanishingiz qayta ishlash formulatsiya deb ataladi. Nihoyat, tovush toʻlqinini yaratish uchun tinglovchi eshita oladigan darajada mushaklaringizni ishlatishingiz kerak boʻladi. Bu jarayonlar artikulyatsiya deb nomlanadi.

Olim Paul Uverren nutq hosil boʻlishini 4ga boʻlgan. Uning nazariyasi boʻyicha nutq hosil boʻlishida maqsad, rejalashtirish, leksikalizatsiya hamda artikulyatsiya turlari mavjud. Soʻzlovchilarning(maʼruzachilar, yozuvchilar) qarashlariga koʻra, xabarni biror kishiga yetkakizishda avval maqsad qoʻyiladi va bu jarayonlar miyamizda qaysi soʻzni fonemani, qays soʻz birikmasini tanlash rejasi tuziladi. Bundan soʻng esa mushaklarimiz orqali tovushlar jamlammasida nutq kelib chiqadi yaʼni artikulyatsiya.

Levelt va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan nutq hosil boʻlish modeli uni yanada detallarigacha tushunimizga yordam beradi. Bu model yondashuv qiyinligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Uning aytishi boʻyicha, nutq hosil qilishda eng muhim bu fikrni yoki gʻoyani faollashtirishdan boshlanadi, misol uchun “mushuk” tushunchasini oʻylash birdaniga /m/u/sh/u/k/ nutq tovushlarining faollashuviga olib kelmaydi. Bu modelning maqsadi nutq

² John Field. Psycholinguistics Key concepts. – Routledge, 2004. P.283.

³ Matthew J. Traxler introduction to Psycholinguistics. Understanding language science. - A John Wiley & Sons, Ltd., Publication, 2012. P. 38

⁴ Matthew J. Traxler introduction to Psycholinguistics. Understanding language science. - A John Wiley & Sons, Ltd., Publication, 2012. P. 38

tovushlaridan oldingi jarayonlardan tasvirlash hisoblanadi. Nutq hosil qilish aqliy jarayonlarning ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Har bir aqliy jarayonlarning o'z maqsadi bo'ladi. Bir aqliy jarayon esa keyingi aqliy jarayon uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni beradi. Bu modelning birinchisi "*Leksik tushunchalar orqali konseptual tayyorgarlik*" deb nomlanadi. Misol uchun bir fikrni bildirmoqchi bo'lganimizda, miyamizda tilda mavjud bo'lgan so'zlardan mosini tanlab olamiz. Ushbu jarayonning natijasi leksik tushuncha deyiladi. Ba'zida aytmoqchi bo'lgan fikringizni so'z bilan ifodalashda qiynalasiz, bu siz aytmoqchi bo'lgan fikrga tog'ri kelmaydi. Bunday hollarda ko'p insonlar "tushuntirib beraolmadim" iborasini ishlatadilar. Bu jarayon sizning fikringiz tilingizda oldindan mavjud bo'lgan so'zlarning hech biriga to'g'ri kelmasligi sababli yuz beradi. Mana bir misol o'zbek tilida ayol mol tushunchasini ifodalashda, sigir yoki g'o'najin so'zlari ishlatiladi. Agar molning ayoli haqida gapirmoqchi bo'lgningizda miyyangizda birdan sigir yoki g'o'najin tushunchalari faollashadi. Ammo, o'zbek tilida ayol echki tushunchasini ifoda eta oladigan so'z yo'q. Bu fikrni ifodalash uchun ikki xil leksik tushunchani tanlab, birlashtirish kerak. Fikrlar alohida so'zlar bilan har doim ham bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli, (til bo'lmagan) fikrlarimizni va bu fikrlarni ifodalash uchun foydalanishimiz mumkin bo'lgan leksik shakllarni qayta ishlash bosqichi kerak bo'ladi. Shuning uchun *leksiklashtirish* (lexicalization) jarayoni – tildan tashqari fikrlash jarayonlarni va bu fikrlarni bildiruvchi og'zaki iboralarni ishlab chiqaruvchi lingvistik tizimlar o'rtasida interfeys bo'lib xizmat qiladi. Ko'pincha tilda siz ifodalamoqchi bo'lgan fikrga yaqin bo'lgan turli xil fikrlar bo'ladi. Bunday holatda, xotiradagi turli xil tasvirlar faollashadi va gapirish qaysidur tasvirni tanlash ba'zi vositalar kerak bo'ladi. Bu *jarayon leksik tanlashdir*. Leksik tanlash lemmaning faollashuvidan hosil bo'ladi. *Lemma* – bu fikrni faollashtirish va fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan nutq tovushlarini faollashtirish o'rtasidagi oraliq bosqichni aks ettiruvchi aqliy tasvidir.

⁵ Lemma murakkabroq fikrlarni ifodalash uchun so'zlarni so'zlarga birlashtiradi.

⁵ Gerard Kempen and Pieter Huijbers. The lexicalization process in sentence production
www.tadqiqotlar.uz 14-to'plam 2-son dekabr 2024

Ko'pincha bir so'z bilan emas, balki jumalarda gapiramiz. Lemmalar so'zlar qatorini grammatik jihatdan maqbul tarzda gapirishimiz kerak bo'lgan ma'lumotni beradi.

Lemmalar faollashgandan so'ng gapirishimiz kerak bo'lgan tovush kodlarini faollashtirish boshlanadi, ya'ni morfologik kodlash jarayoni boshlanadi. Morfema tilning asosiy birligi va o'ziga xos, ma'noga ega bo'lgan shakldir. Morfemalar mustaqil qo'llanmasligi, lug'aviy ma'no ifodalay olmasligi sababli, faqat so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolari shakllanishiga xizmat qiladi. Bu borada Leveltning misolini ta'kidlash lozim, biz biladigan har bir so'z morfologik xususiyatga ega bo'lib, u so'zni jumlagi joylashtirilganda morfema o'zini qanday tutishini bildiradi. Masalan, "eat" so'zining morfologik spetsifikatsiyasi – bu uning ildiz shakli ya'ni uni tahlil qilib bo'lmaydi. "Eat" so'zining hozirgi zamon 3-shaxs birlik fleksiyasi "eats", o'tgan zamon "ate" ekan. Agar siz gapirayotgan paytda ikki kishi biror harakatni bajarayotgan bo'lsa, "eat" deymiz. Agar bir kishi harakatni bajarayotgan bo'lsa "eats" deymiz. (they eat, he eats). So'zning shakli, uning morfologik tavsifi (eats, ate, was eating) lemma gapda qanday aniq rol o'ynashiga qarab o'zgaradi.

Morfemalar hosil bo'lgandan so'ng, morfologik kodlash nutq tovushlar (fonemalar)ni faollashtiradi. Keyin esa nutq signallarini yaratish uhun artikulyar harakatlarni rejalashtirishimiz kerak lbo'ladi. Nutq tovushlarini hosil qilish siz faollashtirgan morfemalarga bog'liq, shuning uchun nutq tovushlarini faollashtirishda oldin to'g'ri morfemalar to'plamini faollashtirishingiz va ularni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirishingiz kerak bo'ladi.

Demak, yanada lo'nda vaytganda, tushunchalar lemmalarga ishora qiladi, lemmalar sizga lemmalarni kattaroq iboralarga birlashtirish uchun kerak bo'lgan morfologik ma'lumotga ishora qiladi. Morfologik kodlash nutq tovushlariga (fonemalarga) ishora qiladi. Aniq lemmalarni ma'lim bir shaklda ifodalash kerak bo'ladi.

and naming: Indirect election of words.

To'g'ri ketma-ketlikda faollashtirilgan morfemalarning to'g'ri tartibda bo'lishi, nutq mushaklarimizni harakatlantirishga bir qadam yaqinlashtiradi. Morfemalarni to'g'irlaganimizdan so'ng individual nutq tovushlarini (fonemalarni) faollashtirish mumkin, ammo gapirish fonemalar tarkibidan ko'proq narsani o'z ichiga oladi. Zamonaviy nutq hosil qilish nazariyasiga ko'ra lemma bu so'z haqidagi mavhum ma'lumotni ifodalaydi. Lekin, uning grammatik sinfi, ma'nosi va boshqa lemmalar bilan birlashishi, tovushlar yig'indisi (so'z) leksema deb yuritiladi. Leksema hosil qilish uchun biz fonemalar (nutq tovushlari) faollashtirishimiz va ularni hosil qilish uchun guruhlariga ajratishimiz kerak.

Biz gapirganimizda shunchaki fonemalarni qatorlashtirib gapirmaymiz, balki bo'g'inlab gapiramiz. Bo'g'inlarni hosil qilish ma'lum bir muvofiqlashtirilgan harakatlar to'plamini talab qiladi. Harakatlar to'plami esa rejalashtirishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha gapirishni boshlashimizdan oldin, qaysi nutq tovushlari bizga kerak bo'lishini aniqlashimiz va faollashgan fonemalarni bo'g'inlarga ajratishimiz bo'g'inlash deb ataladi. Bo'g'inlash ikkita subcompetent jarayonlarni o'z ichiga oladi. Metrik tuzilmani faollashtirish va nutq tovushlarini metrik tuzulishdagi joylarga kirgizish. Metrik tuzilma bo'g'in o'lchamidagi birliklardan iborat. Sizga kerak bo'lgan bo'g'inlar sonini belgilashdan tashqari metrik tuzilma nisbiy urg'u va baland ovozni bildiradi. Har bir so'zda shunaqa ta'kidlash urg'u mavjud. Misol uchun ingliz tilida banana so'zida urg'u ikkinchi bo'g'inda tushadi, panama so'zida bo'sa birinchi bo'g'inda bo'ladi.

Bo'g'inlash haqiqiy aqliy jarayon bo'lib, insonlarning so'zlashuvidagi artikulyatsiya va morfologik jarayonlarida sodir bo'ladi. misol uchun escorting so'zini ko'rib chiqamiz ⁶. Uning ikkita morfemasi bor va -ing qo'shimchasi, so'zlovchi escorting so'zini 3ta segmentga bo'lib ess-cort-ing emas balki ess-core-ting aslida. Agarda "He will escort us" gapida bo'sa ess-core-tuss, ess-cort-us

⁶ A theory of lexical access in speech production

Levelt 1999

www.tadqiqotlar.uz

emas.

Nutq rejalashtirish tizimi soʻzlar va morfemalar toʻplamini faollashtiradi va keyin morfema va soʻzlarni qanday boʻgʻinlarga ajratishning eng yaxshi usulini aniqlaydi. Baʼzan boʻgʻinlar morfemalar va soʻz chegaralarini hurmat qiladi, lekin koʻpincha bu hodisa sodir boʻlmaydi. Levelt va Uvildonning soʻzlariga koʻra soʻz shakllarini birlashtirmaydi, balki nutqda bilinmaydigan darajadagi ritmik, talaffuz qilsa boʻladigan metrik tuzilmalarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. John Field. Psycholinguistics Key concepts. – Routledge, 2004. P.283.
2. Matthew J. Traxler introduction to Psycholinguistics. Understanding language science. - A John Wiley & Sons, Ltd., Publication, 2012. P. 38
3. A theory of lexical access in speech production
4. Goldstein and Brooks Understanding and Managing Children's Classroom Behavior: Creating Sustainable, Resilient Classrooms (Vol. 207). New York: John Wiley & Sons. 2007